



“Buxoro amirligida soliq tizimi”

Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o‘g‘li

Tarix va yuridik fakulteti II bosqich magistranti.

Ilmiy rahbarim: Rustam G‘aniyevich Jumayev

Buxoro Davlat universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori,

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (phd).

Annotatsiya: Buxoro amirligidagi iqtisodiy hayot bugungi kunda ham katta qiziqishlarga sabab bo‘lib kelyapti. Ushbu maqolani o‘rganish orqali Buxoro amirligidagi turli xil soliqlar va ularning amirlik hayotidagi ahamiyati haqida muhim ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Buxoro, yer solig‘i, yig‘im, tanobona, ushr, devonbegi, tutun puli favqulodda soliqlar, tanob, jizya.

Buxoro amirligi — Buxoro xonligini 1756- yildan keyingi nomi; o‘zbek sulolasi ashtarxoniylar o‘rniga kelgan o‘zbek mang‘itlar sulolasi vakillari o‘zlarini amir deb atashgan. Shunga ko‘ra, davlat Buxoro Amirligi deb atala boshlangan. 1920-yil Buxoro bosqini natijasida tugatilgan. Tarixiy manbalardan ma’lumki, ashtarxoniylar sulolasi hukm surgan davrda, ayniqsa, uning oxirgi vakillaridan biri Abulfayzxon hukmronligi yillarida (1711-1747) davlatda o‘zboshimchalik, boshboshdoqlik, o‘zbek qabila-urug‘lari o‘rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo‘lgan intilishlarining kuchayishi bilan bog‘liq holatlar Buxoro davlatini ham ichki ham tashqi siyosatda to‘la tanazzul e‘qasiga olib kelgan edi.



Jamiyat hayotida bunday muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri – ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi rolining pasayganligi va uning yetarli boshqaruv qobiliyatiga ega emasligida edi. Sharqshunos Anke fon Kyugelgen ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ashtarxoniylarning so‘nggi vakillari davlatni boshqarish, uni mustahkamlash va davlatning ichki hamda tashqi xavfsizligi masalalariga jiddiy e’tibor qaratmaganlar. Buxoro tarixini o‘rganishga sharqshunos A.A.Semyonov (1873-1958) katta hissa qo‘shdi. “Buxoro mang‘itlari tarixiga oid”(1924), “Buxoro xonligi er solig‘i va soliq tizimi ocherklari” (1929) asarlari orqali ham Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, amirlikdagi soliq va yig‘imlar haqida bayon etilganligini ko‘rishimiz mumkin.¹Buxoro amirligidagi soliq tizimi haqida so‘z borar ekan turli amirlar davrida soliq tizimida turli xil o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Amir Haydar o‘z hukmronligi davrida soliq yig‘uvchilarga yillik maosh ajratish bilan birga, ularga yiliga ikki marta sarupo ulashgan. O‘z navbatida kambag‘allar, etim-esirlar, qashshoqlar, darveshlar, muhojirlar va mullalarga har yili nafaqa berish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratardi. Amirlikda xitoy-qipchoqlar tomonidan yuzaga kelib turadigan turli mojarolarni oldini olish maqsadida ushbu hududlarga nisbatan turli to‘lovlar miqdorini kamaytirgan.

Amir Nasrullo davrida esa Qo‘qonga yurish qilib, xonlik hududini egallanganidan keyin Qo‘qonga Ibrohim parvonachi mang‘itning noib qilib qoldiradi va bu noib mahalliy aholiga zulm o‘tkazib, soliqlarni ko‘paytirdi²

¹ To‘raev, Halim. Buxoro tarixi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Halim To‘raev. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 320 b.

² Ахмад Дониш. История мангытской династии. –Душанбе: 1967. – Б.15



Amir Said Olimxon hukmronligi davrida “Yosh buxoroliklar”ning talablari asosida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, mahalliy soliqlar 10 foizgacha qisqartirilgan, harbiylar oylik haqi oshirilgan (piyoda xizmatchilarga oyida 3-9 rublgacha, otliq qo‘shinlarga 6-20 rublgacha), harbiy xizmatdan ozod etilgan yoshi ulug‘ kishilarga oyida 3 rublgacha nafaqa tayinlangan. Qozilarga sud jarayonida taraflardan aniq belgilangan miqdordagi boj haqi undirish buyurilgan. Rais – shahar boshlig‘ining xarajatlari qisqartiriladi. Muqaddas erlardan foyda olishga ruxsat berilgan.³

Buxoro amirligida soliq tizimini boshqarishda muayyan toifadagi davlat mulozimlarigina emas, balki, amirlik mulozimlarining deyarli barchasi ishtirok etganlar. Ular o‘zlarining birlamchi xizmat vazifalarini bajarish bilan birga, soliq tizimida ham o‘zlariga topshirilgan vazifa-larni bajarganlar. Muftiy mirza va shogirdpeshalar hamrohligida ko‘rsatilgan hududga borgan hamda amin, oqsoqol va bir necha aholi vakillari bilan birgalikda ushbu hududdagi yerning tanobi va ekilgan ekin turini aniqlab tanob daftariga kiritgan. Zakotchilar yilda bir marta zakot olinishi kerak bo‘lgan mulkdan zakot yig‘ish bilan shug‘ullanganlar. Ular o‘z xizmat vazifalarini bajarishda hokimlarga bo‘ysunmaganlar va mustaqil ish olib borganlar. Zakotchilarning bittasi faqat shaharda turgan va keltirilgan tovarlardan zakot olgan bo‘lsa, ikkinchisi viloyat bo‘ylab yurib, chorva egalaridan zakot yiqqan. Amlodkorlar hokim tomonidan yorliq olib tayinlangan va tumanlarda ma’muriy hokimiyatni tashkil qilgan. Ularning dorug‘a deb nomlanuvchi bir necha yordamchilari bo‘lib, ularning vazifasi g‘alla yig‘inida g‘alla uyumini muhrlashdan iborat bo‘lgan.⁴

³ Шодиев Ж.М. Бухоро амирилиги давлатчилигининг ривожланиши. –Тошкент: 2010

⁴ Кун А.Л. Бухарские порядки. Заметки о порядке взимания поземельных податей // Туркестанские ведомости. – №32. – 1873.



Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar joriy etilgan bo'lib, aholi bularni to'lashga majbur edi. Aholidan yig'ib olinadigan asosiy soliq turlari juda ko'p bo'lganligi quyidagi ro'yxatdan yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Xiroj-ekin erlaridan olinadigan soliq, bunga ushr ham qo'shilgan.
2. Boj- savdogarlardan olinadigan soliq.
3. Alafpuli-beda ekilgan er va chorva emishidan olingan.
4. Bog' puli-uzumzorlardan olinadigan soliq.
5. Chorbog' puli-mevali bog'lardan olinadigan soliq.
6. Ajnos puli-poliz va sabzavot ekinlaridan olinagan.
7. Qovun puli-qovun va tarvuzlardan olinadigan soliq.
8. Uskuna puli-ko'chatlar o'tqazish va daraxt payvandlari uchun olinadigan soliq.
9. Sanjit puli-sanjit daraxtlaridan olinadigan to'lov.
10. Cho'p puli-qurilish ashyolari va o'tindan olinadigan soliq.
11. Barg puli-ipakchilikdan olinadigan soliq.
12. Qo'sh puli-juft qo'sh ho'kizlaridan olinadigan to'lov.
13. Yaksara puli-bitta haydov ho'kizidan olinadigan to'lov.
14. Zakoti chakana-chorvadan olinadigan soliq.
15. Aminona-suvdan foydalanganligi va bozorda sotiladigan mahsulotlardan olinadigan soliq.
16. Tagjoy puli-bozordagi sotuvchilardan olingan.
17. Chuil-harbiy soliq turi.



18. Boqia puli-sugʻorish inshootlari uchun toʻlov
19. Shox va mix puli-qurilish ashyollari (qamish, xashak)dan olingan.
20. Lobaki puli-ariqlarni tozalash uchun olinadigan toʻlov.
21. Joʻyga puli-bosh ariqdan oʻz eriga oladigan suvga toʻlanadigan soliq.
22. Chigʻir puli -suvni koʻtarib beruvchi moslama uchun olingan.
23. Osiyo puli-tegirmonlardan olinadigan toʻlov.
24. Objuvoz puli-sholi tozalovchi tegirmonlardan olingan.
25. Qayiq puli-daryolarda qayiq bilan yurgani uchun olingan.
26. Farsax puli-yoʻl puli.
27. Joziya puli(jiz'ya)-yahudiylardan olinadigan soliq.
29. Mergan puli-ovchilardan olinadigan soliq.
30. Avarizot-favqulodda olinadigan harbiy soliq.
31. Qorachiliq-qoʻriqchi va mirshablar xarajatlari uchun olinadigan soliq.
32. Maktab puli- ilm olganligi uchun.
33. Zakot– savdodan olinadigan soliq.
34. Suv puli- suvda tashilgan yuklardan olinadigan toʻlov.
35. Kotibona- kotib foydasiga olinadigan soliq.
36. Quduq puli-quduq suvidan foydalannilganligi uchun oligan.
39. Nikoh-xona-nikoh oʻqiganligi uchun olinadigan soliq.



40. Ulovgir - ot-arava va ulov egalaridan olingan.⁵

Sotuvchi biror tovarni sotganidan so'ng uning qo'liga zimmasidan zakotto'lash sharti soqit bo'lganini bildiruvchi hujjat – **xati ma'of** berilgan. Molini sotgan odam zakot yig'uvchilar kelgan vaqtda qo'lidagi ma'of xati ni ko'rsatgan va zakot to'lamagan.⁶

Amirlikdagi soliq amaliyotiga ko'ra, tijorat daromadlaridan olinadigan zakotlar zakoti tijorati deb yuritilgan va mahsulot turiga qarab nomlangan. Gazlama o'ramlari toy deb nomlangan va bozorlarda sotish uchun keltirilgan gazlamalarning toyiga qarab zakot olingani uchun toy puli deyilgan. Hujjatdagi raqamlarga ko'ra, turli gazlama toylaridan turli miqdorda zakot olingan, chunki bu miqdor gazlamaning bahosidan kelib chiqib belgilangan.⁷

XIX asrning so'nggi choragi- XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi bojxona ishini yuritish tartiblari islom huquqi asosida shakllangan bo'lib, aynan shariat buyurgan zakot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bundan bojxona postlaridan olingan boj aynan zakot vazifasini o'tagani ma'lum bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Jizzax Buxoro amirligining Qo'qon xonligi bilan chegara hududida joylashgan shahar bo'lgan. Amirlik hududidan Qo'qon xonligi orqali shimolga chiqish va savdo karvonlarining amirlik orqali janubiy davlatlarga borish yo'llari Jizzaxdan o'tgan. Karvonlarning o'tganligi, asosiy zakot punkti bo'lganligi sababli Jizzax savdo munosabatlarida ham faol va daromad keltiruvchi hudud bo'lgan.⁸

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida soliqlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Chunki yig'ib olingan soliqlar orqali davlatning ichki va tashqi sarf-xarajatlari qoplangan.

⁵ Qarshiyev, A. (2023). SURXON VOHASINING AGRAR VA SOLIQ TIZIMI HAQIDA. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(6)

⁶ O'zR MDA, I.126-fond, 1-ro'yxat, 659-yig'ma jild, 81-varaq.

⁷ O'zR MDA, I.126-fond, 1-ro'yxat, 627-yig'ma jild, 1-varaq.

⁸ Azizov I. SH XIX asrning so'nggi choragi- XX asr boshlarida BOSHARIDA BUXORO AMIRLIGI SOLIQ TIZIMI. Toshkent – 2019.



Davlatning deyarli hamma sohalariga qaraydigan bo'lsak, qandaydir kichik miqdorda bo'lsa ham biror turdagi yig'im yoki soliq olinganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'raev H.H. Buxoro tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / Halim To'raev. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 320 b
2. Ахмад Дониш. История мангытской династии. –Душанбе: 1967. – Б.15
3. Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. –Тошкент: 2010
4. Кун А.Л. Бухарские порядки. Заметки о порядке взимания поземельных податей // Туркестанские ведомости. – №32. – 1873.
5. Qarshiyev, A. (2023). Surxon vohasining agrar va soliq tizimi haqida. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 16b.
6. O'zR MDA, I.126-fond, 1-ro'yxat, 659-yig'ma jild, 81-varaq
7. O'zR MDA, I.126-fond, 1-ro'yxat, 627-yig'ma jild, 1-varaq.
8. Azizov I.SH. XIX asrning so'nggi choragi- XX asr boshlarida BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI SOLIQ TIZIMI. Toshkent – 2019.